

## **Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari to'g'risida Ma'lumotnoma**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tomonidan kuzgi semestr yakunlari bo'yicha institut talabalaridan ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etayotgan holatlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, institut faoliyatining shaffofligini ta'minlash maqsadida talabalar uchun onlayn so'rovnoma o'tkazildi.

2025/2026-o'quv yilning 13-28- fevral va 1-7-mart kunlarida milliy ta'lim tizimining taraqqiyoti, rivoji va unda uchrayotgan ba'zi bir salbiy hodisalardan ogohlantirish va ularga qarishi turish yo'llarini izlash maqsadida, hamda ta'lim sifati bo'yicha anonim shaklda **so'rovnoma tadqiqoti** o'tkazildi.

Ushbu anonim shakldagi so'rovnoma tadqiqotda institutning I-kursdan **1328 nafar**, II-kursdan **686 nafar**, III-kursdan **739 nafar**, IV-kursdan **490 nafar**, talabalari **34** ta'lim yo'nalishlari bo'yicha jami **3243 nafar** talabalar ishtirok etishdi.

Institut bo'yicha umumiy hamda fakultetlar bo'yicha tahlil natijalari (**2 varaqda**) ilova qilinmoqda.

### **So'rovnoma tahlili:**

- **Sizga o'tilayotgan fanlarni dars jadvaliga qo'yilgan professor-o'qituvchining o'zi o'tadimi?** savoliga institut bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko'p 2842 nafari (87,6 foizi)** ha, har doimo o'zi o'tadi, **350 nafari (10,8 foizi)** ba'zida boshqa o'qituvchilar o'tib turadi, **36 nafari (1,1 foizi)** yo'q, doim kafedradagi boshqa o'qituvchi o'tadi va **eng kam 15 nafari (0,5 foizi)** lavozimda ishlaydigan, o'rindoshlik asosida keladigan professor-o'qituvchilar ko'pincha darslarni o'zi o'tmaydi deb javob berishgan. Fakultetlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar jadvali ilova qilinadi.

- **Yakuniy baholash jarayoni adolatli va shaffof o'tkazildimi?** savoliga institut bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning **2896 nafari (89,3 foizi)** ha, **314 nafari (9,7 foizi)** qisman, **33 nafari (1,0 foizi)** yo'q deb javob berishgan.

- **Professor-o'qituvchilarning darsda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanishi sizni qoniqtiradimi?** degan savolga institut bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko'p 2736 nafari (84,4 foizi)** ha, **460 nafari (14,2 foizi)** qisman va **47 nafari (1,4 foizi)** yo'q deb javob berishgan.

- **O'quv fanlaridan bo'ladigan ma'ruza va amaliyot mashg'ulotlarining sifati sizni qanchalik qoniqtiradi?** degan savolga institut bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko'p 2698 nafari (83,2 foizi)** barcha professor-o'qituvchilar mashg'ulotlarni yuqori saviyada olib borishadi, **475 nafari (14,6 foizi)** o'quv mashg'ulotlarining yarmisi qiziqarli, yarmisi o'ta zerikarli o'tiladi, **33 nafari (1,0 foizi)** professor-o'qituvchilarning ba'zilari ma'ruza mashg'ulotlari o'tish o'rniga, hayotlarini gapirib beradilar, **26 nafari (0,8 foizi)** o'tilayotgan ma'ruza va amaliyot mashg'ulotlarining sifati umuman bizni qoniqtirmaydi va **11 nafari (0,3 foizi)** darslar tahlilini ChatGPT yordamida kuzatib boramiz, ko'pincha noto'g'ri ma'lumotlar beriladi deb javob berishgan.

5. Institutning moodle.dtpi.uz platformasidan foydalanmasizmi? degan savolga institut bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko'p 286 nafari (39,4 foizi)** ha doimiy foydalanaman, **174 nafari (24,0 foizi)** yo'q foydalanmayman, **165 nafari (22,8 foizi)** qisman foydalanaman va **113 nafari (15,6 foizi)** hozirda bu platforma ishlayapdi deb javob berishgan.

- **Mustaqil ta'lim topshiriqlari foydali bo'ldimi, yaxshi yo'lga qo'yilganmi?** degan savolga institut bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko'p 3057 nafari (94,3 foizi)** mustaqil ta'lim topshiriqlari foydali bo'ldi, yaxshi yo'lga qo'yilgan, **111 nafari (4,3 foizi)** mustaqil ta'lim topshiriqlari nomiga yo'lga qo'yilgan, **57 nafari (1,8 foizi)** mustaqil ta'lim topshiriqlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan va **18 nafari (0,6 foizi)** mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish o'rniga o'qituvchining boshqa xizmatlarini qilib berib mustaqil ta'limdan baho oldik deb javob berishgan.

- **Fakultet va kafedrada talabalar uchun fan va ilmiy to'garaklar (sport va madaniy tadbirlar) yetarli darajada tashkil etilganmi?** degan savolga institut bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko'p 2544 nafari (78,4 foizi)** ha, to'garaklar bor, yaxshi yo'lga qo'yilgan, **385 nafari (11,9 foizi)** to'garaklar qisman yo'lga qo'yilgan, **232 nafari (7,2 foizi)** yo'q, to'garaklar umuman yo'lga qo'yilmagan va **eng kam ko'rsatkich 82 nafar (2,5 foiz)** to'garaklar bor, ammo ishlaymaydi nomiga yo'lga qo'yilmagan deb javob berishgan.

- **Professor-o'qituvchilar tomonidan dars mashg'ulotlaridan joriy-oraliq, mustaqil ta'lim va yakuniy nazoratlarni qanday topshirishlaringiz haqida simestr boshidan tushuntiradimi yoki fan o'tib bo'lingandan keyin bilib qolasizlarmi?** savoliga **3031 nafari (93,5 foizi)** barcha professor-o'qituvchilar o'zi o'tadigan fanlardan joriy-oraliq va mustaqil ta'lim toshiriqlarini qanday topshirish kerakligini simestr boshida ma'suliyat bilan tushuntiradi, **150 nafari (4,6 foizi)** ba'zi professor-o'qituvchilar joriy-oraliq va mustaqil ta'lim toshiriqlarini qanday topshirish kerakligini fanning yarmini o'tib bo'lgandan keyin tushuntiradi, **31 nafari (1,0 foizi)** qisman, professor-o'qituvchilar joriy-oraliq va mustaqil ta'lim toshiriqlarini qanday topshirish kerakligini tushuntiradi, **21 nafari (0,6 foiz)** ba'zi professor-o'qituvchilar joriy-oraliq va mustaqil ta'lim toshiriqlarini qanday topshirish kerakligini fani tugagandan keyin tushuntiradi deb va **10 nafari (0,3 foiz)** deyarli barcha professor-o'qituvchilar joriy-oraliq va mustaqil ta'lim toshiriqlarini qanday topshirish kerakligini umuman tushuntirmaydi deb javob berishgan.

- **Institutda turli vajlar bilan talabalar va pedagog xodimlardan pul mablag'larini yig'ish holatlarining kuzatilishi mavjudmi?** degan savolga institut bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko'p 2682 nafari (82,7 foizi)** yo'q, bizda bunday holat mavjud emas, **361 nafari (11,1 foizi)** ha doimiy ravishda, **127 nafari (3,9 foizi)** ha, vaqti-vaqti bilan va **eng kam ko'rsatkich 73 nafari (2,3 foiz)** oldin bo'lib turardi, hozir to'xtagan deb javob berishgan.

- **Institutda ta'magirlik va tanish-bilishchilik holatlari qaysi jarayonlarda kuzatiladi?** savoliga, **eng ko'p 2812 nafari (86,7 foizi)** bizning institutda bunday

holatlar kuzatilmagan, **284 nafari (8,8 foizi)** oraliq va yakuniy imtihonlarni topshirish jarayonida, **59 nafari (1,8 foizi)** dars mashg'ulotlarga muntazam qatnashmaydigan talabalarni kursdan kursga o'tkazishda, **53 nafari (1,6 foizi)** mustaqil ishi, kurs ishi va diplom ishlarini qabul qilish jarayonida va **eng kam ko'rsatkich 35 nafari (1,1 foizi)** nomli davlat stipendiyalarga nomzodlarni tavsiya qilish jarayonida deb javob berishgan.

- **Institutda professor-o'qituvchilar, tyutor va boshqa xodimlar tomonidan ta'magirlik va tanish-bilishchilikning qanday shakllari kuzatiladi?** savoliga, **2962 nafari (91,3 foizi)** bizning institutda bunday holatlar kuzatilmagan, **142 nafari (4,4 foizi)** naqt pul yoki plastik kartaga pul o'tkazish ko'rinishida, **62 nafari (1,9 foizi)** biron shaxsiy manfaati uchun xizmat qilib berish ko'rinishida, **45 nafari (1,4 foiz)** biron moddiy narsa-buyum buyurtma berish ko'rinishida, **20 nafari (0,6 foiz)** ovqatlanish yoki yegulik olib keldirish yoki restoran buyurtma qilib qo'yish shaklida va **12 nafari (0,4 foiz)** shaxsiy moshinangizda biron joyga oborib kelishda foydalanish yoki moshina bilan bog'liq turli hizmatlar aytish deb javob berishgan.

- **Oliy ta'lim muassasasida korrupsion holatlarga duch kelganingizda qayerga murojaat qilishni bilasizmi?** degan savolga institut bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning **2850 nafari (87,9 foizi)** institutning korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi va institut rahbariyatiga, **289 nafari (8,9 foizi)** huquqni muhofaza qiluvchi organlarga va **104 nafari (3,2 foiz)** ommaviy axborot vositalariga deb javob berishgan.

**Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i: D.Shukurov**